



Ўз вақтида огоҳлантириш, қутқариш ва ёрдам бериш асосий вазифамиздир!

Vaziyat

2024 йил
19 сентябрь
№ 38 (979)



Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги нашри

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган

КЎРСАТМА ВА ТАВСИЯЛАР



Фавқулодда вазиятлар вазири генерал-майор А.Қўлдошев ҳамда Сирдарё вилояти ҳоқими А.Маҳмудалиев иштирокида ўтказилган кўмондонлик-штаб ўқув машғулотида ФВДТ ҳудудий кўйи тизими органларининг фавқулодда вазиятларда функционал вазифаларини бажариш йўналишларини аниқлаштиришга жиддий аҳамият қаратилди.

Бу турдаги машқлар ҳарбий хизматчиларга турли мураккаб вазиятларда мустақил қарор қабул қилиш ҳамда ҳаракатланишда қўл келиши қайд этилди.

Авария-қутқарув ва бошқа кечиктириб бўлмайдиган вазифаларни бажаришда моддий-техник таъминот масалаларини ҳал этиш борасида зарур фикрлар баён этилди. Аҳолини ва ҳудудларни қор кўчкиси, сел-тошқин ҳодисалари билан боғлиқ фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш бўйича муҳим фикр-мулоҳазалар билдирилди. Гидротехник иншоотлар, сув омборлари ва сел-сув омборларида юзага келиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш бўйича бажарилаётган ишлар сифатига баҳо берилди. Хавфли ҳудудлардаги дарёлар, сойлар ва каналлар, қирғоқ ва дамбалар мустаҳкамлиги ҳамда ички ариқлар ва магистрал каналлар тозаланиши борасида сўз юритилди.

Тошқин сувлари ва сел оқимларини хавф-хатарсиз ўтказиб юборишни таъминлаш, уларнинг хавфини камайтириш бўйича кечиктириб бўлмайдиган вазифалар муҳокама қилинди. Жараёнда мутасаддиларга аҳолини ва ҳудудларни тошқинлар, сел оқимлари билан боғлиқ фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қи-

лиш бўйича тегишли кўрсатма ва тавсиялар берилди ҳамда устувор вазифалар белгилаб олинди.

Юзага келган фавқулодда вазиятлар оқибатларини бартараф этишда ФВДТ хизматларининг ҳамкорликдаги ҳаракатлари кўриб чиқилди. 2024 – 2025 йиллар куз-қиш мавсумига тайёргарлик кўриш, мавсум давомида иссиқлик ва энергетика тармоқларини барқарор ишлашини таъминлаш борасидаги ишларни такомиллаштиришга қаратилган амалий ҳаракатлар олиб борилди. Содир бўлиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятлар ва йирик аварияларнинг олдини олиш ҳамда ёнғин хавфсизлигини таъминлаш тадбирларини самарали ташкил этиш бўйича муҳим вазифалар бажарилди. Жараёнда аҳолини фавқулодда вазиятларда тўғри ҳаракат қилиш, юзага келиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларда талафотларнинг олдини олиш, қутқарув ва фуқаро муҳофазаси тузилмаларининг хизмат фаолиятлари синондан ўтказилди.

Машқлар бевосита жойларда, кўргазмалар шаклида ташкил этилиб, тизим ходимларининг билим ва кўникмалари оширилди. Уларни ўтказиш давомида мавсумга пухта тайёргарлик кўриш, авариялар содир бўлганда табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва бартараф этишни ташкил этиш, авария ҳолатларида ҳудудий бошқарув органларининг ҳамкорликдаги ҳаракатларини такомиллаштириш кабиларга алоҳида эътибор қаратилди. Соҳадаги камчиликларни бартараф этиш юзасидан куз-қиш мавсумида содир бўлиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш, авария-тиклаш бўлинмаларининг тайёргарлиги ва бошқа зарурий жиҳатларни эътиборга олиш зарурлиги кўрсатиб ўтилди.

Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги ҳамда Қуролли Кучлар тизимидаги вазирлик ва идоралар раҳбарияти томонидан Наманган вилоятининг Поп туманида ҳарбий хизматчи ва хизматчилар ҳамда уларнинг оила аъзолари учун оммавий сайёр қабул ўтказилди.

ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАР МУҲОКАМАСИ

Ушбу тадбир давомида Фавқулодда вазиятлар вазири ўринбосари полковник Х.Алибаев томонидан вилоят ФВБ тизимида хизмат қилаётган ҳарбий хизматчилар оила аъзоларининг бандлигини таъминлаш ва уларни қийнаб келаётган, ечимини топмаётган муаммоларини ўрганиш, ижтимоий қўллаб-қувватлаш масала-

лик тинч ва тотув бўлса, шундагина давлат тинч ва барқарор раванқ топади. Шу жиҳатдан, оила кўрғонининг мустаҳкамлиги ва унда маънавий жиҳатларнинг шаклланиши ҳамда амалга оширилиши муҳим аҳамиятга эга. Бинобарин, оила аталмиш муқаддас маконда фарзандлар камолга етади, улғаяди.



ларига алоҳида эътибор қаратилди. Келиб тушган мурожаатларнинг аксарияти жойида ҳал этилиб, қолганларига ҳуқуқий тушунтиришлар берилди.

Муддат талаб этадиган мурожаатлар эса назоратга олинди, ижросини таъминлаш мақсадида мутасадди ташкилотларга юборилди. Ёшларни Ватанга муҳаббат, истиқлол ғоялари-

Қолаверса, мамлакатимизда етук ва малакали ҳарбий кадрларни тайёрлаш, уларнинг оилалари учун муносиб ҳаёт шароитларини яратиш давлат сиёсатининг муҳим йўналишларидан бирига айлангани таъкидланди. Тизим ходимларини онгу тафаккурига Ватан ва халқ манфаатларига хизмат қилиш шарафли



га садоқат, ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаб, ҳарбий соҳада хизмат қилиш иштиёқини янада кучайтиришда ота-оналар ва маҳалланинг ўрни юксак эканлиги таъкидланди.

Қайд этилганидек, жамиятнинг муҳим бўғини бўлган оилалар қанча-

ҳамда муқаддас бурч эканини англаштириш, қасамёдида содиқ бўлиш ва касбий бурчини бажаришда қонунийликка қатъий риоя этиш борасида муҳим фикрлар билдирилди.

Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.

КУРАШ МУСОБАҚАСИ

Қарши ҳарбий прокуратураси томонидан Қашқадарё вилоятидаги Фавқулодда вазиятлар вазирлигига қарашли Шаҳрисабз “Темурбеклар мактаби” ўқувчилари ўртасида “Ҳарбий прокурор кубоги” учун спортнинг миллий кураш тури бўйича мусобақа ўтказилди.

“Оқсарой” мажмуасида бўлиб ўтган беллашувларда ушбу ҳарбий-академик лицей курашчилари 3 та вазн тоифасида куч синашишди.

Мусобақа натижаларига кўра вазн тоифалари бўйича Шоҳрух Хайруллаев, Сардор Турданов ва Шодиёр Ортиқовларга тенг келадиган рақиб топилмади.

Бугунги кунда бутун дунё давлатлари коррупция иллатига қарши кураш йўлида кескин чораларни қўлламоқда. Буни, албатта, ўзига хос сабаблари бор.

БАРЧАМИЗ МАСЪУЛМИЗ!



Коррупция – шахснинг ўз мансаб ёки хизмат мавқеидан шахсий манфаатларини ёхуд ўзга шахсларнинг манфаатларини кўзлаб, моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида, қонунга хилоф равишда фойдаланиши, шунингдек, бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этиш ҳолатидир.

Коррупциянинг илдиз отиши жуда катта талафот ва йўқотишларга олиб келади. Жумладан, демократия ва инсон ҳуқуқлари институтларнинг мустақамланишига жиддий пуғур еткази;

кенг жамоатчиликда ҳокимиятга бўлган ишончни сўндиради;

жамиятдаги тинчлик, осойишталик, адолат, қонун устуворлиги каби ижтимоий-ҳуқуқий қадриятларнинг бузилишига олиб келади;

бозор иқтисодиёти қонуниятларининг бузилиши, яширин иқтисодиётнинг пайдо бўлиши ва ривожланишига замин яратади;

давлат бюджетига жиддий зарар еткази ва ҳ.к.

А.МУСАЕВ,
адлия майори.

“МОТИВАЦИОН ТРЕЙНИНГ”

ФВВ Махсус муҳандислик-қурилиш бошқармасида ўз йигитлик бурчини ўтаётган ёш муддатли ҳарбий хизматчилар ўртасида Ватанга муҳаббат туйғусини янада юксалтириш мақсадида, М.Улуғбек тумани «Тўқайтепа» масжиди имом ҳатиби С.Мамадалиев, Амалий психолог Н.Толипова ва Д.Маҳмудовалар иш-

Шунингдек, 2-ўринга Сардор Сатторов, Лочинбек Гадов ва Асилбек Муродов, 3-ўринга эса Диёр Самандаров, Ҳамид Ҳамидов, Рамазон Шоймардонов, Дилшод Нормуродов, Илҳом Алиев ва Эҳсон Ҳақимовлар муносиб деб топилди.

Ғолибларга медаль, эсдалик совғалари, диплом ва кубок тантанали равишда топширилди.

Тадбир давомида ҳарбий оркестр, фахрий қоровул ва ҳарбий хизматчиларнинг чиқишлари барчага байрамона кайфият бағишлади.

Қурбондурди ПОЛВАННАЗИРОВ,
Қарши ҳарбий прокурорининг ёрдамчиси, адлия капитани.

Янги Ўзбекистон шароитида коррупция иллатига қарши курашнинг мутлақо янги тизими йўлга қўйилди. Аввало, Ўзбекистон Республикаси Коррупцияга қарши курашиш агентлиги, шунингдек, коррупцияга қарши курашиш бўйича республика идоралараро ҳамда ҳудудий комиссиялари ташкил этилди.

Бугунги кунда давлат ва хўжалик бошқаруви органларида коррупцияга қарши ички назорат тизими ҳам жорий этилган бўлиб, улар ҳам ўз фаолият йўналишлари кесимида қатор вазифаларни амалга оширмоқдалар. Хусусан, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги тизимида ҳам ушбу масалага масъул бошқарма томонидан тизимда коррупция иллатига қарши мурасасиз курашиш, унга барҳам бериш, ушбу иллатни юзага келтирувчи омилларни эрта аниқлаш ва бартараф қилиш, ходимларнинг коррупцияга қарши кураш маданиятини ошириш, уларни ҳалоллик вакцинаси билан эмлаш бўйича тизимли тадбирлар олиб борилмоқда.

Коррупцияга қарши курашишда манфаатлар тўқнашуви билан боғлиқ ҳолатларга муҳим эътибор қаратиш лозим. Манфаатлар тўқнашуви — шахсий (бевосита ёки билвосита) манфаатдорлик шахснинг мансаб ёки хизмат мажбуриятларини лозим даражада бажаришига таъсир кўрсатаётган ёхуд таъсир кўрсатиши мумкин бўлган ҳамда шахсий манфаатдорлик билан фуқароларнинг, ташкилотларнинг, жамиятнинг ёки давлатнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари ўртасида қарама-қаршилик юзага келадиган ёки юзага келиши мумкин бўлган вазиятдир.

А.МУСАЕВ,
адлия майори.

тирокида “Мотивацион трейнинг” ташкил этилди.

Трейнинг давомида ёш муддатли ҳарбий хизматчиларга стресс ҳолатларида ўзини қандай тутиш ва бу ҳолатдан қандай чиқиб кетиш йўллари ҳақида давра суҳбати бўлиб ўтди.

Трейнинг якунида ёш муддатли ҳарбий хизматчилар билан психологик машғулотлар ўтказилди.

Р. МИРЗАЕВ,
ФВВ Махсус муҳандислик-қурилиш бошқармаси бўлим катта офицери, катта лейтенант.

Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси томонидан Хоразм вилоятида ўрганишлар олиб борилди.

МАВСУМГА ТАЙЁРГАРЛИК

Жумладан, қатор ҳарбий қисм ва муассасаларда куз-қиш мавсумига тайёргарлик, хизмат ўталиши ва бунинг учун яратилган шароитлар, ҳарбий техникаларнинг сақланиши ҳолати ўрганилди.

Уларда энергия самарадорлиги, энерготежамкор ускуналардан фойдаланиш бўйича амалга оширилаётган чора-тадбирларга алоҳида эътибор қаратилди.

Шунингдек, ҳарбий тузилмалар ҳудудида амалга оширилаётган қурилиш-таъмирлаш ишларига аҳамият берилди.



Якунида масъулларга тегишли кўрсатмалар бериб ўтилди.

Умид НИЗАМОВ,
Урганч ҳарбий прокурори, адлия подполковниги.

Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси томонидан Мудофаа ва Фавқулодда вазиятлар вазирликлари, Миллий гвардия, ИИБ Қоровул қўшинлари раҳбарияти билан ҳамкорликда мамлакатимизнинг олис ҳудудларида оммавий сайёр қабуллар ўтказиб келинмоқда.

САЙЁР ҚАБУЛЛАР

Уларнинг навбатдагиси Наманган вилоятининг Поп туманида ташкил этилди.

Унда ҳарбий хизматчилар ва уларнинг оила аъзолари, пенсионерлар ва ёшларнинг мурожаатлари тингланди.

Жараёнда мурожаатларни жойида ижобий ҳал этишга алоҳида эъти-

бор қаратилди, бир қатор мурожаатларга ҳуқуқий тушунтириш берилди, ечими вақт талаб этадиган мурожаатлар эса назоратга олинди.

Сардор ЁРМАТОВ,
Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурорининг ёрдамчиси, адлия подполковниги.

АМАЛИЙ ТАДБИРЛАР

Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси маҳкамаси ходимлари томонидан ҳуқуқий тарғибот-профилактика тадбирлари ташкил этилди.

Хусусан, Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлигининг Тошкент вилояти бошқармасида очиқ мулоқот ўтказилди. Унда ҳуқуқбузарлик, унинг таснифи, жавобгарлик асослари ва жиноятларнинг олдини олиш ҳақида маълумотлар берилди.

Шу каби тадбир Миллий гвардияга қарашли ҳарбий қисмларнинг бирида ҳам амалга оширилди.

Мулоқотда таваккалчиликка асосланган онлайн ўйинлар, уларнинг аянчли оқибатлари ҳусусида сўз борди.



Бундан ташқари, Тошкент вилоятининг Олмалиқ шаҳридаги ҳарбий қисм ва муассасаларда куз-қиш мавсумига тайёргарлик, жумладан, электр ва табиий газ тақсимлаш ускуналари фаолияти, ўз навбатида, энергия самарадорлиги борасида амалга оширилаётган ишлар ўрганилиб, мутахассисларга тегишли тавсиялар бериб ўтилди.

Ғиёсиддин РАҲМОНОВ,
Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурорининг ёрдамчиси, адлия подполковниги.

Сирдарё вилоятида Мудофаа вазирлигига қарашли ҳарбий қисм ташкил топган кун муносабати билан тантанали тадбир ўтказилди.

ФАОЛИЯТ

Унда ҳарбий прокуратура, туман ҳокимлиги, ҳарбий қисм кўмондонлиги, фахрийлар ва бошқа мутасадди ташкилотлар вакиллари иштирок этди.

Сўз олганлар томонидан ҳарбий хизматчиларнинг миллий армиямизда тутган ўрни, юксак ҳарбий салоҳияти, қўшинлар ривожига қўшаётган ҳиссаси алоҳида эътироф этилди.

Шунингдек, Гулистон ҳарбий прокуратураси томонидан Бекобод

шаҳрида оммавий сайёр қабул ўтказилди.

Тадбирга тумандаги ташкилот ва идоралардан жалб қилинган соҳа мутахассислари билан биргаликда Қуролли Кучлар ҳарбий хизматчилари, ходимлари, уларнинг оила аъзолари ва ёшлар мурожаати тингланди.

Жараёнда муаммоларнинг кўпчилиги жойида ҳал этилди.

Фаррух ЖУМАЕВ,
Гулистон ҳарбий прокурори, адлия подполковниги.

ШАРАФЛИ КАСБ СОҲИБИ

Жаҳонда юз бераётган воқеа-ҳодисалар, беқарор сиёсат, гегемонлик вазвасаси, ўзаро зиддиятлар, миллатчилик каби бўҳронлар биздан ҳар қачонгиданда кўпроқ миллий мустақамликни талаб этмоқда. Буюклар насли, темурийлар мероси, бобурийлар издоши, қадимидан ўт чақнаган, билаги бақувват ўғлонларимизнинг шижоатлари кундан-кунга ортиб, қалбида Ватан мадҳи жўш урмоқда. Боболаримиз панд-насихатлари, момоларимизнинг айтган аллалари, дуоларининг ижобати биз ёшларнинг юзимизда, ҳаракатларимизда акс этмоқда. Бугуннинг ҳаваскори, эртанинг халоскорлари сафида ФВВ Академиясининг 5-батальон курсанти Шуҳрат Юлдашевни яққол кўра оламиз.

Дарвоқе, қутқарувчилик касби ҳаёт-мамот масаласи эканлиги ҳеч биримизга сир эмас. Суҳбатдошимиз ҳам мана шу шарафли касбнинг ўзига хос мураккаб жиҳатларини, қийинчиликларини тушуниб, улғайди ва қутқарувчилик касбига меҳр қўйди. Ҳарбий хизматчини қийинчиликлар тоблашини, машаққатларда тажрибаси ошишини юракдан ҳис қилди. Масъулият ҳисси қанчалик юксак бўлса, эришиладиган натижа ҳам шунга яраша бўлади. Айни пайтда у чуқур меҳр қўйган касбини мукамал эгаллаш учун астойдил ҳаракат қилмоқда.

– Болалигимдан ҳарбий соҳага қизиқаман, – дейди Шуҳрат Юлдашев. – Ҳарбий соҳага қизиқишимнинг асосий сабабларидан бири, бу – бобомнинг босиб ўтган ибратли ва залворли йўлидир. Бобом Иккинчи жаҳон урушида Ватанимизнинг ҳимояси учун бор куч-қувватини, садоқатини бахшида этиб, ўз йигитлик бурчини адо этган. Ушбу бўлган воқеаларни ота-онам болалик вақтларимдан вужудимга сингдириб, руҳан тайёрлаб келар эдилар. Бобомнинг камтарона меҳнатлари муносиб тақдирланган. Ўз навбатида, мен ҳам Олий

ҳарбий ва ҳарбийлаштирилган билим юртлари билан Мудофаа вазирлиги ташкил этган машғулотларда фаол қатнашиб, ташаккурнома билан тақдирландим. Ҳозирги кунда академиямизда профессор-ўқитувчилар билан биргаликда соҳамизга оид бир нечта янгиликлар юзасидан иш олиб бормоқдамиз.

Ўқиш, ўрганиш, изланиш, тажрибали қутқарувчи бўлишнинг муҳим шарти саналади. Бу эса қаҳрамонимизнинг зиммасида улкан масъулият борлигидан далолат беради. Касбидан камол топаман деган инсон танлаган соҳасини мукамал ўзлаштиришга, соҳада ўрин топишга ҳаракат қилади. Ана шунда эришажак ютуқлари ҳам юксак бўлади.

Шуҳрат Юлдашев 2023 йилда Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари моделлаштириш ва симуляция бўйича тадқиқот ўтказиш дала ўқув марказида республика олий билим юртлари курсантлари ўртасида ўтказилган компьютер ўқув-штабида фахрли ўринни қўлга киритди. Аъло баҳолар, фанларни яхши ўзлаштирганим ҳамда жамоат ишларида фаол иштироким учун 2024 йил ФВВ томонидан Амир Темур номидаги стипендия билан тақдирландим.

Шу ўринда айтиш лозимки, таълим-тарбия ва илм-фан тараққиёти ҳар қандай мамлакатнинг эртанги кунини, истиқболини белгилаб берувчи асосий мезондир. Юртимизда бу борада шиддатли ислохотлар амалга оширилиб, соҳада туб бурилишларга эришилмоқда. Мазкур йўналишдаги барча саъй-ҳаракатлар таълим сифати ҳамда илм-фан натижадорлигини таъминлашга қаратилгани билан янада аҳамиятлидир. Суҳбатдошимиз ҳам бундан унумли ва ўринли фойдаланмоқда.

Рушана РОЗАБОВА,
ЎЗЖОКУ ҳарбий журналистика йўналиши талабаси.



ФЕСТИВАЛЬ

Наманган вилояти ФВБда ўтказилган “Хонатлас-2024” фестивали ҳақиқий байрамона тус олди. Унда бошқармада хизмат олиб бораётган ҳарбий хизматчи ва хизматчи хотин-қизлар атлас, адрас, бахмал каби миллий матолардан тайёрланган либосларда ҳамда миллий аксессуарлардан фойдаланиб, тадбирда фаол иштирок этишди.

Дастлаб, бошқарма бошлиғи полковник Бунёд Эгамназаров томонидан хонатласнинг келиб чиқиш тарихи, асрий маданиятимизда тут-

ган ўрни ҳақида тўхталиб, бугунги кунда бутун дунёда миллий кадрият сифатида тан олинishi эътироф этилди.

Тадбир доирасида Наманган шаҳар ҳокимининг хотин-қизлар бўйича ўринбосари Дилоромхон Абдурахимова ҳам ташриф буюриб, «Хонатлас» ўзбек халқи анъаналарининг ажралмас қисми эканини таъкидлади.

Қаҳрамон САТТОРОВ,
Наманган вилояти ФВБ ахборот хизмати бошлиғи, капитан.



АЛИМЕНТ ТўЛАМАСЛИК ОҚИБАТИ

Тошкент шаҳрида яшовчи Рўзи Маҳмудов (исм-шарифлар ўзгартирилган) ширин орзу-ниятлар билан Латофатга уйланади. Орадан йиллар ўтиб ўғил ва қизли бўлишди. Аммо фарзандлар туғилиши оила ришталарини мустаҳкамлай олмади. Рўзгордаги майди-чуйда гап-сўзлар бора-бора оилани ажралиш оstonасига олиб келди. Табиийки, Латофат бир муддат фарзандларини алиментсиз боқиб келди.

Суднинг буйруғига асосан, Рўзи Маҳмудовга вояга етмаган фарзандларининг моддий таъминоти учун вояга етгунига қадар ойлик ва бошқа даромадларининг учдан бир қисми миқдорида алимент пулини тўлаш мажбурият юклатилган эди. Бироқ, у белгиланган алимент пулини тўлашдан қасддан бўйин товлаб келди. Шу ўринда айтиш керакки, Рўзи Маҳмудов юриш-туриши билан маҳаллада ҳам ўзининг салбий томонларини кўр-

сатган. Алимент пуллари қасддан тўламай келган Р.Маҳмудов суднинг ҳукмига кўра айбли, деб топилди.

Фарзандларини “унутган” отага суднинг ҳукми билан иш ҳақининг 10 фоизини давлат даромади ҳисобида ушлаб қолган ҳолда бир йил олти ой муддатга ахлоқ тузатиш ишлари жазоси таъинланди.

Ота-онанинг фарзандлари олдидаги мажбуриятларидан бири, вояга етмаган болаларига таъминотини қилишдир. Бу мажбуриятни ихтиёрий равишда бажармаган ота қонуний жавобгарликка тортилади. Ўз фарзандлари тақдирига бу қадар бефарқ қарайдиган оталар учраб туриши афсусланарли ҳолат, албатта. Ундайларга нисбатан қатъий жавобгарлик чоралари белгиланган.

Сурайёхон ХОЖАМҚУЛОВА,
Жинойят ишлари бўйича Миробод туман судининг судьяси.

МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР НАМОЙИШИ

ФВВ Академиясида ўтказилган “Хонатлас” фестивали бежирим нақшлар туширилган, зардўзлик санъатини, қўл меҳнатини ўзида мужассам этган миллий либослари орқали қалбида миллийлик уфуриб турган барча ҳарбий хизматчи ва хизматчи хотин-қизларимизни бир мақсадда бирлаштиради.

Миллатнинг дунёда мавжудлигини кўрсатадиган ўзига хос кадриятларидан бири миллий либосларидир. Ҳар қандай кишини кўзини қувонтириб, товланиб турувчи хонатласу адраслар, бахмал нимчалар, чопонлар, каштали дўппилар билан уйғунлашиб, улардаги ёрқин ранглар билан миллий либосларимиз янада виқорли кўринади.

Мазкур фестивалда ФВВ Академияси хотин-қизлари ҳам фаол иштирок этиб, миллий



либосларимиз тарғиботида ўз ҳиссаларини қўшиб келмоқдалар.

Малоҳат БАДАЛБАЕВА,
ФВВ Академияси хотин-қизлар масалалари бўйича маслаҳат кенгаши раиси, подполковник.

ЗАРУР ТАВСИЯ

Ер қимирлаши қачон ва қаерда содир бўлишини олдиндан айтиб бўлмайди. Шунинг учун сейсмик фаол ҳудудларда доимий яшайдиган ёки вақтинча у ерда бўлган аҳоли ер силкинганда оддий эҳтиёт чораларини билишлари лозим. Ер силкениши ярим тунда ҳам юз бериши мумкин, бу вазиятда ўзини бошқара олган инсон кўрқувни енгиши осон бўлади.

Агар хонани ичида бўлсангиз, бинода силкиниш сезилса хавфдан қутилишга ҳаракат қилиш, олдиндан белгилаб олинган хавфсиз жойга туриб олиш ва ўзингизни хотиржам тутишингиз, атрофингиздагиларни саросимага туширадиган ҳаракатлар қилмаслигингиз керак.

Кўчада бўлганингизда кўп қаватли бинолар остида турмаслик, очиқ жойга чиқишингиз, электр симлари тагида

турмаслик, ер қимирлаши тўхтагач жабрланган одамларга биринчи ёрдам бериш, ёнғин бўлган жойларни илжи борича ўчириш, қутқарувчилар келгунча хотиржамлик билан шароитни тўғри баҳолашингиз лозим.

Гўзапхон КАДИРОВА,
Шайхонтоҳур тумани ФВБ П ва НБ кичик инспектори, кичик сержант.

TIBBIY VA PROFILAKTIKA CHORALARI

Favqulodda vaziyatlarda jabrlanuvchilarga shoshilinch tibbiy yordam ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Ikkala bosqichda ham ishchi-xodimlar, aholi, talaba va o'quvchilar, aviariya-qutqaruv guruhlar yordamida qidiruv-qutqaruv, razvedka, jabrlanuvchilarni vayronalardan vaqtincha yig'ish joylariga olib chiqish, ularga birinchi yordam ko'rsatish ishlari amalga oshiriladi. Bu ishlar uchun javobgarlik favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish komissiyasi yoki shtab zimmasiga yuklanadi. Birinchi bosqichda, ya'ni favqulodda vaziyat hududida olib boriladigan ishlarda tibbiy xizmat xodimlaridan

tashqari boshqa xizmatlarning ham roli katta bo'ladi. Chunki favqulodda vaziyat hududida jabrlanganlar soni ko'p bo'lganda ularni qutqarish, birinchi tibbiy va birinchi shifokor yordami ko'rsatish ishlariga qutqaruvchilar va tibbiyot xodimlarining kuch va vositalari yetmay qolishi mumkin. Bunday vaziyatlarda favqulodda vaziyat hududiga obyektlarning ishchi-xizmatchilarini, aholini, o'quvchi va talabalarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega.

N.BESHIMOV,
SHKB OYXTTEB inspektori, leytenant.
O.SHUKURILLAYEV,
inspektor, leytenant.

O'QUV MASHQI

Pop tumani "Xo'jaobod" MFYdagi "Art soft cotton" MCHJga qarashli paxta qabul qilish maskanida "Paxta – 2024" mavsumi oldidan tuman FV bo'limi hamda daxldor tashkilotlar bilan hamkorlikda yong'in o'chirish maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Jarayonda shartli ravishda sodir bo'lgan yong'inni, tuman favqulodda vaziyatlar bo'limi yong'in-qutqaruvchilari tomonidan bartaraf etish va daxldor tashkilotlar tomonidan taalluqliligi yuzasidan belgilangan vazifalar amalga ko'rsatib berildi.



Mashqda jamiyatga qarashli barcha paxtani qayta ishlash maskani va paxta qabul qilish punkt, yong'in-qutqaruv bo'linmalari boshliqlari va tuman hamkorlikdagi favqulodda davlat quyi tizim tashkilotlari ishtirok etdilar.

Islomjon MELIBOYEV,
Namangan viloyati FVB axborot
xizmati yetakchi mutaxassisi.
O'tkirjon MAMASODIQOV,
Pop tumani FV bo'limi TB boshlig'i,
leytenant.

TUSHUNTIRILMOQDA

Tegishli xizmatlar bilan hamkorlikda aholi yashash xonadonlarida uyma-uy yurib profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Fuqarolarga elektr va gaz uskunalaridan foydalanishda ularning sozligiga, maishiy elektr jihozlaridan foydalanishda yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilishga e'tibor qaratilishi tushuntirilmoqda. Yong'in-qutqaruv qismlari shaxsiy tarkibi tomonidan favqulodda vaziyat yoki yong'in sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish tartibi va qutqaruv ishlarini tashkil etish bo'yicha

yong'in o'chirish amaliy-taktik mashq va odamlar ommaviy yig'iladigan maskanlarda yong'in-qutqaruv texnika vositalari namoyish etilmoqda. Yong'in xavfsizligi qoidalari talablarini targ'ib qiluvchi eslatma, yo'riqnoma va plakatlarni tarqatilmoqda. Tekshiruv va ko'riklar davomida aniqlangan yong'inga qarshi kamchiliklar bartaraf etilmoqda.

Bahodir IBRAGIMOV,
Toshkent shahar FVB OYXTTEB
kichik inspektori, kichik serjant.

IZLANISH VA TASHABBUSLAR AMALDA

Bugungi kunda FVV Akademiya-sida kursantlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan bo'lib, zamonaviy o'quv binolari, futbol stadioni, voleybol maydonchasi va yana boshqa binolar hamda ulardagi imkoniyatlar bo'lajak xaloskorlarning orzu-maqсадlarini ro'yobga chiqarishda asosiy vositalardan biri bo'lmoqda. Jumladan, Axborot-resurs markazi tarkibidagi "Umumiy kutubxona", "Yuridik kutubxona" va "Elektron kutubxona" fondi 100 mingga yaqin adabiyotni o'zida jamlagan.

Akademiya tarkibida oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kunduzgi ta'lim

fakultetlari, qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi, shuningdek, bir nechta kafedralar, bo'limlar, markazlar samarali faoliyat olib bormoqda.

Oliy harbiy ta'lim dargohida 1978-yildan 2023-yilga qadar "Yong'in xavfsizligi", "Texnosfera xavfsizligi", "Radiotexnika", "Informatika va informatсион texnologiyalar", "Hayot faoliyati xavfsizligi" yo'nalishlari bo'yicha 9000 nafardan ortiq mutaxassis tayyorlanib, tizimga yo'llangan.

Oxirgi 10 yil davomida akademiya respublikadagi o'ta muhim va toifalangan obyektlar hamda xo'jalik yurituvchi

Chinoz tumani FV bo'limi tomonidan otaliqqa olingan yoshlar va bo'lim tizimida ishlayotgan qutqaruvchi yoshlar bilan "Rahbar va yoshlar uchrashuvi" bo'lib o'tdi.

SERTIFIKATLAR TOPSHIRILDI

Ochiq muloqot tarzida o'tkazilgan ushbu suhbatda ularning muammo, takliflari va yutuqlari eshilib, muhokama qilindi. Shuningdek, yoshlar bilan ko'rgazmali targ'ibot ishlari ham olib borilib, qutqaruvchilik kasbiga qiziqish bildirgan yoshlarga ishga kirish bo'yicha tavsiya va ma'lumotlar berildi.

Tadbir so'ngida favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan



targ'ibot-tashviqot ishlarida hamda profilaktik tadbirlarda ishtirok etish yuzasidan o'tkazilgan darslarda faol qatnashgan yoshlarga sertifikatlar topshirildi.

Azizbek QO'SHAQOV,
Chinoz tumani FV bo'limi boshlig'i
o'rinbosari, mayor.

AMALIY MASHG'ULOT

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va yong'in xavfsizligini ta'minlash borasida FVDT xizmatlari bilan hamkorlikda Dehqonobod tumanidagi ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar, ta'lim va davolanish muassasalari va MFYlarda "Zilzilagacha, zilzila vaqtida, zilziladan so'ng o'quvchi va o'qituvchilar hamda ishchi-xizmatchilarning harakatlari" mavzusida amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.

Mashg'ulotlar davomida zilzila vaqtida to'g'ri harakatlanish, obyektga jabrlanganlarni qutqarish, birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish, sodir bo'lgan yong'inni bartaraf etish, elektr va gaz tarmoqlarida yuzaga kelgan nosozliklarni bartaraf etish, sanitar dizinfeksiya qilish bo'yicha harakatlar kuzatildi.

O'tkirbek YULDASHEV,
Dehqonobod tumani FV bo'limi
bo'linma boshlig'i, mayor.



TANLOV

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Navoiyuran" Davlat korxonasi obyektlarida Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi harbiy xizmatchilari o'rtasida ko'rik-tanlov bo'lib o'tdi.

Tanlov davomida to'sinda tortilish, 100 metr va uch ming metr masofaga yugurish, avtomatni to'liqsiz qismlarga ajratish va yig'ish, elektron o'q otish va kasbiy bilimlarini aniqlash uchun test sinovlari qabul qilindi. Tanlovning ikkinchi bosqichida markaz tasarrufidagi Uchquduq, Zarafshon va Navoiy sa-

noat maydonidagi obyektlarni yong'indan muhofaza qiluvchi yong'in-qutqaruv qismlarining 35 yoshgacha bo'lgan oddiy askar va serjantlar tarkibiga mansub harbiy xizmatchilar ishtirok etdilar.

Tanlov natijalariga ko'ra, Shimoliy kon boshqarmasi obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi 8-yong'in-qutqaruv qismi xodimi oddiy askar Fayoz Hamroyev 1-o'rinni qo'lga kiritdi. 2-o'rinni MKB (Zarafshon) markaz kon boshqarmasi obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi 3-yong'in-qutqaruv qismi xodimi oddiy askar Zulfiqor Saidmurodov egallagan bo'lsa, SHKB obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi 8-yong'in-qutqaruv qismi xodimi oddiy askar Sardor Farmonov 3-o'rinni band etdi.

Beshim RO'ZIYEV,
Markaz bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.
Ma'rufjon HAYITOV,
NKMK YOXTTE markazi kichik
inspektori, katta serjant.

subyektlarning 4000 nafardan ortiq xodimlari yong'in xavfsizligi bo'yicha o'z malakalarini oshirgan. Shuningdek, o'tgan yillar davomida akademiya olimlari tomonidan 30 dan ortiq ixtirolarga patentlar olingan va ushbu ishlanmalar yong'in xavfsizligi xizmatida amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Akademiya kafedralari tomonidan mamlakatimizdagi turli idora, tashkilot va muassasalar, ishlab chiqarish korxonalarini bilan bevosita hamkorlik yo'lga qo'yilgan. FVV, "O'zbekneftgaz", "O'ztransgaz" aksiyadorlik jamiyatlari, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Fanlar akademiyasi va yana qator tashkilot hamda muassasalar bilan olib borilayotgan hamkorlik loyihalarini fikrimizga yaqqol misol qilishimiz mumkin.

Akademiya tomonidan Germaniya, Fransiya, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Belarus, Ozarbayjon, Qozog'iston kabi xorijiy davlatlarning turdosh oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini rivojlantirish yuzasidan qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Muhimi shundaki, FVV Akademiyasi jamoasi o'z zimmasidagi ulkan mas'uliyat talablaridan kelib chiqib, soha yo'nalishi bo'yicha ulkan salohiyatli kadrlarni tarbiyalash yo'lida bor kuch va imkoniyatlarini safarbar qilib kelmoqda.

Baxshulla JAHONQULOV,
FVV Akademiyasi axborot xizmati
boshlig'i.

VATANPARVARLIK



Quyichirchiq tumani FV bo'limi tomonidan otaliqqa olingan yoshlar, maktab o'quvchilari bilan vatanparvarlik ruhida uchrashuv o'tkazildi.

Uchrashuv tumandagi 21-kasbiylashtirilgan yong'in-qutqaruv qismida bo'lib o'tdi. Tadbir davomida yoshlarga harbiy xizmatchilarning kun tartibi va xizmat sharoitlari haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, yoshlarni kasbga yo'naltirish va Vatan himoyasiga qiziqtirish maqsadida harbiy xizmatda taqdim etiladigan imtiyozlar, shart-sharoitlar hamda kasbiy rivojlanish imkoniyatlari haqida tushunchalar berildi.

Mahkam JAHIYAEV,
Quyichirchiq tumani FV bo'limi P va NB katta inspektori, katta leytenant.

MUSOBAQA

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida vazirlik tizimidagi yong'in-qutqaruv bo'limlariga yangi qabul qilingan va lavozimga tayinlangan harbiy xizmatchi hamda xizmatchilarning boshlang'ich kurs tayyorgarligidan o'tayotgan tarkib orasida o'quv yig'ini davomida olgan bilim sa'yalarini mustahkamlash hamda ularning jangovar tayyorgarligini oshirish maqsadida "Yong'in o'chirish amaliy sporti" musobaqasi o'tkazildi.

Musobaqada tinglovchilar uchta shart bo'yicha bellashdilar, ya'ni 1-shart ishg'ol qilish narvoni bilan o'quv minorasining 4-qavatiga ko'tarilish, 2-shart 100 metr to'siqlar osha yugurish bo'lsa, 3-shart ekipajning jangovar yoyilishi edi.

Musobaqada beshinchi o'quv yig'iniga jalb qilingan tinglovchilar orasidan 7 ta jamoa ishtirok etdi.

Qizg'in va murossasiz kechgan bellashuvlar yakuniga ko'ra, 1-shart bo'yicha 1-o'rinni Muhammadjon Xudoybekov, 2-o'rinni oddiy askar Shavkatjon Tursunaliyev va 3-o'rinni To'rabek Shonazarov egallagan bo'lsa, 2-shartda 1-o'rin Dilshod Ismoilovga, 2-o'rin Sohib Tangatarovga, 3-o'rin esa oddiy askar Asror Begamovga nasib etdi. Musobaqaning 3-sharti bo'yicha birinchi o'rinni 2-vzvod jamoasi, ikkinchi o'rinni 5-vzvod jamoasi hamda 3-o'rinni 7-vzvod jamoasi egalladi.



G'oliblar markaz rahbariyati tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

U.SOLIYEV,
FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi katta o'qituvchisi, podpolkovnik.
M.ASATOV,
markaz o'qituvchisi, mayor.

Namangan viloyati Norin tumani maktab-gacha va maktab ta'limi bo'limida tuman FV bo'limi boshlig'i O.Sharipov hamda Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi boshlig'i B.Hakimovlar ishtirokida "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi o'tkazildi.

ANJUMAN

Tadbirda "Xo'jaobod", "Nurziyo", "Toda", "Toshloq", "Qo'shchek" hamda "Boyovul" mahallalaridan 70 ga yaqin otaliqqa olingan yoshlar ishtirok etdilar.

Uchrashuv davomida yoshlar ishga joylashish, tadbirkorlik qilish va shu kabi masalalar bilan murojaat qildilar.

Murojaatlarni ayrimlariga o'z o'mida yechim topilgan bo'lsa, boshqalarga tegishligi bo'yicha yo'naltirildi.



Bundan tashqari, yoshlarni qiziqtirgan savollariga javob berilib, ularga esdalik sovg'alari topshirildi.

O.SHARIPOV,
Norin tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.
N.USMONOV,
bo'lim katta inspektori, katta leytenant.

YO'RIQNOMA

Chinoz tumanidagi 45 va 9-umumta'lim maktablarini qayta qurish belgilangan. Tuman FV bo'limi tomonidan obyektlarni qayta qurish ishlari o'rganib chiqildi. Qurulish tashkiloti rahbariyatiga, ishchi-xodimlariga qurilish davrida shaharsozlik va qurilish me'yor-qoidalari asosida yong'inga qarshi tadbirlarni to'liq bajarish kerakligi yuzasidan tavsiyalar berildi.



O'rganishlar davomida yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish bo'yicha yo'riqnoma o'tkazildi.

Azizbek QO'SHAQOV,
Chinoz tumani FV bolimi boshlig'i o'rinbosari, mayor.
Abdulla ABDULLAYEV,
bo'lim katta inspektori, katta serjant.

YOSHLAR MUAMMOSIGA YECHIM

Qashqadaryo viloyati FVB HFXO'M o'qituvchilari tomonidan Qarshi shahar 2-sektoridagi otaliqqa olingan yoshlar va viloyat Volontyorlik markazi vakillari ishtirokida davra suhbat tashkil etildi.

"Favqulodda vaziyatlarning olidini olish va ularni bar-taraf etishga doir ishlar", "Zilziladan oldin, zilzila vaqti-da va zilziladan so'ng" mavzusida ma'ruzalar qilindi. Qutqaruvchilar esa qidiruv-qitqaruv avtomobillari, as-bob-anjomlarining ko'rgazmasini o'tkazishdi. Ularning taktik-texnik xususiyatlari haqida ma'lumot berishdi.

O'QUV SEMINAR

Toshkent shahar FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi tomonidan Yashnobod tumanidagi 77-ixtisoslashtirilgan ko'zi ojizlar maktab-internatida "Favqulodda vaziyatlarda, xususan zilzilada to'g'ri harakatlanish qoidalari" mavzusida o'quv seminari o'tkazildi.



Tadbir davomida ishtirokchilarga Fuqaro muhofazasi instituti tomonidan bog'cha, maktab, professional va oliy ta'lim muassasalarida zilzila va boshqa favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga o'rgatishga mo'ljallangan elektron qo'llanmalar CD disklarda tarqatildi. Seminar ishtirokchilari mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

G.BEKOVA,
Toshkent shahar FVB HFXO'M o'qituvchisi.



UCHRASHUV

Samarqand viloyati Jomboy tumanida viloyat FVB boshlig'i podpolkovnik N.Kadirov ishtirokida boshqarmaga birlashtirilgan otaliqqa olingan yoshlar bilan "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi o'tkazildi.

Unda rahbarlar bugungi kunda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar va ushbu imkoniyatlardan unumli foydalanish to'g'risida so'z yuritib, o'zlarining kasbiy bilim va tajribalari bilan o'rtoqlashdilar.

Shuningdek, tumandagi 54-umumta'lim maktabi hovlisida otaliqqa olingan yoshlardan iborat 12 ta jamoa ishtirokida "Zakovat" intellektual o'yini bo'lib o'tdi.

Munozaralarga boy bo'lgan o'yin yakuniy natijalariga ko'ra, 1-o'rinni "Xitoypolvon" mahallasi yoshlari qo'lga kiritdi.

Uchrashuv so'ngida faol ishtirok etganlarga diplom, esdalik sovg'alari va kitoblar to'plami topshirildi.

Samarqand viloyati FVB axborot xizmati.

Mana shu kabi tadbirlar davomida yoshlar muammolari ham o'rganilmoqda. Jumladan, Mirishkor tumani yoshlaridan 7 nafari Rossiya Federatsiyasida ishlash istagini bildirdi. O'rnatilgan tartibda ularning til o'rganishlari uchun ko'maklashildi va shartnoma asosida ishga yuborildi. Yoshlarning 2 nafariga tadbirkorlik qilishi uchun imtiyozli kreditlar ajratilishiga harakat qilindi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirib daromat topishlari uchun 1 nafariga 1 gektardan yer ajratilgan bo'lsa, 1 ta oilaning 2 nafari a'zosiga tikuv mashinasi olib berildi. "Yoshlar daftarida" turgan Koson tumani Mustaqillik mahallasida yashovchi Izzat Sheraliyev ham bugun o'zi hoxlagan kasb egasi bo'lishida viloyat FVB xodimlarining hissasi beqiyosdir.

Farhod MIRZAYEV,
Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'i, polkovnik.

Kuydirgi bilan har yili millionlab odamlar kasallangan. Abu Ali Ibn Sino, Gippokrat, Gomerlar uni "hayvonlardan odamlarga yuqadigan kasallik" deb ta'riflashgan.

KUYDIRGI KASALLIGI

Qadim zamonlarda kuydirgi kasalligini "muqadas olov", "fors olovi", "Eron alangasi" nomlari bilan atashgan. 1788-yili rus olimi S.S.Andreyevskiy Sibirdagi epizootiya vaqtida bu kasallikni hayvondan o'ziga yuqtirib, odamlar bilan hayvonlarda uchraydigan kasallik bir xil ekanligini isbotladi va bu kasallikni "Sibir yarasi", deb atashni tavsiya etdi. U kuydirgining patologik anatomiyasi, klinik xillarini tasvirlab berdi, davo va profilaktika usullarini ishlab chiqdi. Kuydirgi qo'zg'atuvchisini birinchi marta 1876-yilda R.Kox ajratgan, 1881-yilda L.Paster, 1883-yilda esa L.S.Senkovskiylar kuydirgiga qarshi vaksinalarini ixtiro qilganlar.

Kuydirgi kasalligining qo'zg'atuvchisi aerob, harakatsiz tayyoqcha bo'lib, uzunligi 5-10 mikron, eni 1-1,5 mikronni tashkil etadi, tashqi sharoitga qarab tayoqchali, ya'ni vegetativ hamda spora shaklida bo'ladi. Kuydirgi mikrobinin virulentligi shundaki, tashqi qobig'ida va hayvon organizimida, spetsifik kapsula hosil qilib, o'zidan kuchli zahar (toksin) ishlab chiqaradi, shu bilan birga spora shaklida kislorod yetishmagan va quruq tuproqlarda 100 yilgacha yashash xususiyatiga ega.

Bu kasallikka asosan qoramollar, qo'y va echkilar, ot, eshak hamda tuyalar moyil hisoblanadi. It, mushuk va yovvoyi yirtqich hayvonlar kasallikka kamroq chalinadi. Sovuq qonli hayvonlar va parrandalar kasallikka chalinmaydi. Shu bilan birga, yovvoyi hayvonlar va yirtqich parrandalar kasallangan hayvon go'shtini yegandan so'ng uzoq muddat davomida kuydirgi sporasini axlati va siydigi yordamida tashqi muhitga tarqatadi.

Kasallik odamlarga kasal hayvonlarni parvarishlaganda, kasallangan hayvonlardan olingan teri, junga ishlov berganda, ulardan olingan sut va go'shtini iste'mol qilgan hollarda yuqadi.

Hozirgi kunda Samarqand viloyati hududida joylashgan kuydirgi kasalliklarining eski kasallik o'choqlarini qayta ro'yxatdan o'tkazish ishlari olib borilmoqda. Aholiga profilaktika eslatmalar tarqatilmoqda.

N.SAYFULLAYEV,

Samarqand viloyat FVB RKvaTBMTEB bosh inspektori, leytenant.

TARG'IBOT

Ohangaron tumani FV bo'limi "Ohangarontumangaz" GTB xodimlari, shuningdek, tegishli tashkilotlar vakillari bilan hamkorlikda tumandagi "O'zbekiston" mahalla aholisi o'rtasida tabiiy gazni va elektr energiyasini iqtisod qilish yuzasidan zamonaviy, tejamkor, xavfsizlik avtomatikasi mavjud bo'lgan jihozlar to'g'risida tushunchalar berildi. Shuningdek, aholi xonadonlaridagi eskirgan jihozlarni almashtirish yuzasidan targ'ibot ishlari olib borildi.



Ulug'bek SHERMURATOV,
Ohangaron tumani FV bo'limi
BYOXTTE bo'linma boshlig'i,
podpolkovnik.

Jasur ASADOV,
bo'linma inspektori, katta leytenant.

KO'NIKMALAR SHAKLLANTIRILDI

Chilonzor tumani FV bo'limi tomonidan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha uchrashuvlar o'tkazilmoqda. Aholi bilan bo'lgan suhbatlarda zilzila hamda yong'inlar, ularning yuzaga kelish sabablari, to'g'ri harakat qilish borasida keng ko'lamli tushuntirish-targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Amaliy mashg'ulotlar tarzida o'tkazilayotgan tadbirlar orqali insonlar ongida favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha ko'nikmalar shakllantirilmoqda.

Doniyor HUSANOV,

Chilonzor tumani FV bo'limi P va NB profilaktika bo'limi kichik inspektori, kichik serjant.

MUHIM TADBIRLAR

Paxta yetishtirish qanchalik dolzarb bo'lsa, uni turli tabiiy ofatlardan, jumladan yong'indan saqlash ham shunchalik muhimdir. Yong'in tilsiz yov ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz. Ayrimlarning loqaydligi, o'z vazifasiga mas'uliyatsizlik bilan yondashishi tufayli yong'in chiqishi va oqibatda katta mehnat evaziga yetishtirilgan paxta yonib, kulga aylanishi hech gap emas.

O'rtachirchiq tumani yong'in xavfsizligi bo'limi xodimlari joylarda paxta hosilini terib olish, tashish, saqlash va qayta ishlash mavsumini risoladagidek o'tkazishda yong'in xavfsizligi qoidalariga to'liq rioya qilish muhim ekanligi haqida profilaktik tadbirlar o'tkazib kelishmoqda.

A.ZOKIROV,

O'rtachirchiq tumani FV bo'limi P va NB katta inspektori, leytenant.

A.XUDAYBERGANOV,

bo'lim bo'linma inspektori, serjant.

TARTIBLAR O'RGATILDI

Qashqadaryo viloyati FVB mas'ullari tomonidan Qarshi shahrida "Qarshi CITY" loyihasi bo'yicha qad rostlayotgan ko'p qavatli uylarda profilaktik tadbirlar o'tkazildi.



Tadbirda mutaxassislar tomonidan quruvchi va ishchi-xizmatchilarga qurilishda yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish va birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish tartiblari o'rgatildi.

Qolaversa, mas'ullar tomonidan binolarda yong'inga qarshi talablar holati o'rganilib, binolar uchun yong'inga qarshi suv ta'minotini yaxshilash va yong'indan xabar berish qurilmalari bilan ta'minlash yuzasidan muhandis-texnik xodimlariga zarur tavsiyalar berildi.

Sa'dullo ATABAYEV,

Qashqadaryo viloyati FVB bo'lim boshlig'i, mayor.

AMALIY MASHQ

"Paxta-2024" mavsumiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish davomida paxta qabul qilish va qayta ishlash korxonasida Kosonsoy tumani FV bo'limi rahbarligida tumandagi "Go'rmiron" MFY hududida joylashgan "Namangan paxta teks" MCHJ Kosonsoy tumani filialida sohaviy xizmatlar hamda maskan ishchi-xizmatchilari ishtirokida yong'in o'chirish amaliy-taktik mashqi o'tkazildi.

Mashq davomida yong'in-qutqaruvchilar, maskan yong'in o'chirish guruhi va ishchi-xizmatchilari, paxta qabul qilish punktlarida yong'inlar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda uni dastlabki vaqtlarda bartaraf etish, fuqarolarni xavfsiz joyga evakuatsiya qilish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish hamda mol-mulkni yong'indan asrab qolish bo'yicha bilim va malakalari oshirildi.

Foziljon USMONOV,

Kosonsoy tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, katta leytenant.

QURILISH OBYEKTLARIDA

Uchqo'rg'on tumani FV bo'limi tomonidan "Mustaqillik" MFYda 4-umumta'lim maktabi binosida qurilish-ta'mirlash ishlarini olib borilayotgan "Kelajak zamon sardori" MCHJ qurilish ishchi-xodimlari o'rtasida kuz-qish mavsumida favqulodda vaziyatlarda hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash yuzasidan profilaktik tadbir bo'lib o'tdi.



Unda quruvchilar ishtirokida yong'in xavfsizligini ta'minlash har bir insonning burchi ekanligi, qurilish ishlari olib borilayotgan bino hamda hududda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, birlamchi yong'in o'chirish anjomlari bilan ta'minlash, omborxonada oldida payvandlash ishlarini olib bormaslik, belgilanmagan joylarda tamaki mahsulotini iste'mol qilmaslik, o'z xususiyatini yo'qotgan elektr sim kabellaridan foydalanilmaslik xususida zarur tavsiyalar berib o'tildi.

Donyor XOLIQOV,

Uchqo'rg'on tumani FV bo'limi DYON katta inspektori, kapitan.

TASHVIQOT

"Navoiyuran" DK sulfat kislotasi ishlab chiqarish sexi ishchi-xizmatchilari bilan kuz-qish mavsumi oldidan targ'ibot ishlari o'tkazildi. Birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish tartibi tushuntirildi.

Ta'kidlanganidek, olov – inson ehtiyojlari uchun xizmat qiladi. Biroq, olovdan nihoyatda ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur. Shu bois, yurtimizda aholi hayoti va sog'lig'i, jismoniy va yuridik shaxslar mulkining ishonchli himoyasini ta'minlaydigan yaxlit yong'in xavfsizligi tizimi shakllantirildi. Xodimlarimiz tomonidan hamkor tashkilotlar hamda jamoatchilik vakillari bilan birgalikda shahardagi mahalla fuqarolar yig'inlari hududlarida tushuntirish-targ'ibot tadbirlari amalga oshirilmoqda.



Elyor XOMITOV,

ShKB OYXTTEB inspektori, leytenant.

Farrux ULUGOV,

kichik inspektor, oddiy askar.

1 октябрь – Устоз ва мураббийлар куни

УСТОЗ – МУЪТАБААР ИНСОН

Дунёда касблар жуда кўп, ҳар бирининг ҳаётда ўз ўрни ва аҳамияти бор. Лекин улар орасида бир улуғ касб борки, бошқа барча касблар унинг негизида шаклланади ва тараққий этади. Бу ўқитувчилик касбидир.

Устоз, муаллимлик – касбларнинг энг машаққатлиси. Кимдир шифокор, кимдир эса ҳарбий. Аммо шифокор ва ҳарбийларни ҳам мураббий тарбиялайди. Халқимизнинг устоз отангдек улуғ, деган пурҳикмат нақлида ҳам ўқитувчи ва мураббийларга бўлган самимий эҳтиром намоён. Чунки ота-она фарзандни вояга етказди, устоз эса униб-ўсиши, камолотга эришиши, илм-маърифат чўқиларини забт этишига кўмаклашади. Ўз умри, қалб қўри, ақл-идроки, тажрибаси ва билимини сарф этади.

Муаллим, устоз – шундай мўътабар зотки, унинг номи ҳам, умри ҳам ҳамisha боқийдир. Устоз ва мураббий! Барчамиз ёшимиз, касбу коримиздан қатъий назар, бу сўзларни эшитганимизда кўнглимиздан фақат илиқ фикрлару ёрқин хотиралар ўтади. Шу тобда кўз ўнгимизда қўлимизга қалам тутқазиб, эндигина илм оламига етаклаган биринчи устоз-муаллим, қийналиб турганимизда масаланинг тугунини ечишга ёрдам қилган, биргина шу амали билан умр бўйи ёдимизда қолган инсон гавдаланади. Қалбимизда унутилмас из қолдирган кадрдон мактабимиз ва унинг бағрида кечган беғубор йилларимизни, бизга билим берган, инсонийлик фазилатларини ўргатган меҳрибон ўқитувчи ва мураббийларимизни катта ҳурмат ва эҳтиром билан эслаймиз. Ҳаёт гўзаллиги, турмуш фаровонлиги, инсон одоби, қолаверса, истиқболимиз муаллим меҳнати билан бевосита боғлиқ. Қуёш ўз нури билан бутун табиат, борлиқни жонлантиргани каби, ўқитувчи, мураббий ҳам бор маҳорати, илми билан ўқувчи-ёшлар қалбини илм зиёси билан тўлдиришга аҳд қилган буюк касб эгасидир.

Устозга ҳурматни кўрганда салом бериш, ҳол сўраш, олдида юрмаслик, кўп савол бермаслик, жойига ўтирмаслик, малолланиб турганда кўп вақтини олмаслик, ҳузурда изн олиб гапириш, ҳақларига дуо қилиш ва бошқалар. Устозга қанчалик ҳурмат кўрсатилса, талабанинг илмига шунча барака киради. Алишер Навоийнинг қуйидаги ҳикматли сўзлари бежиз эмас:

Ҳақ йўлида ким сенга бир ҳарф уқутди ранж ила,

Айламоқ осон эмас ҳаққин адо минг ганж ила.

Агар тарихга назар ташлайдиган бўлсак, Искандар Зулқарнайн, Соҳибқирон Амир Темур сингари буюк салтанатга эга бўлган подшоҳлар ҳам устоз ҳурмати, устоз хизматига катта эътибор берганларини кўришимиз мумкин. Машҳур олим, “Ҳидоя” асари муаллифи, ватандошимиз Бурҳониддин Марғиниий шундай ҳикоя қилади: “Бир куни Бухоронинг олимларидан бири илм даргоҳида шогирдларига дарс бериб ўтирар экан, дарс асосида гоҳ-гоҳ ўрниларидан туриб, сўнг яна қайта ўтирарди. Бу ҳол бир неча бор қайтарилгандан сўнг, шогирдлари бунинг сабабини сўрадилар. У зот: “Устозимнинг кичик ёшли ўғли болалар

билан кўчада ўйнаб юрибди, гоҳида эшик олдида келяпти, ҳар келганида устозимга ҳурмат ўлароқ ўрнимдан туряпман,” – деб жавоб берганлар”. Абдулла Авлоний ҳам “ҳар бир миллатнинг саодати, давлатнинг тинчи ва роҳати ёшларнинг яхши тарбиясига боғлиқдир”, деб ёзган эди. Эътибор берсак, олимларимиз ҳаётларида биз учун нақадар гўзал ибратлар мавжуд. Олимлик макомига етиб, ўзининг илм ҳалқасига эга бўлган олим ўз устозининг ҳали эсини танимаган фарзандини кўрганда ҳам устозга ҳурмат сифатида ўринларидан туряптилар.

лик, устозларга эҳтиром кўрсатайлик, аниқроқ айтганда, аждодларимизга муносиб авлод бўлайлик.

Муаллим деганда кўз ўнгимизда ўсиб келаётган ёш авлодга ўз билим ва тажрибаларини, кўз нури ва қалб ҳароратини, бутун борлигини бахшида этувчи фидойи инсон тимсоли гавдаланади. Муаллим оламнинг машъласидир. Бу айни ҳақиқат. Бу фикрнинг ўзиёқ устоз ва мураббийларнинг жамият равнақидаги юксак салоҳиятидан нишонандир. Бу ёруғ оламда муаллим каби ўзлигидан кечиби, ўзгани камолга етказишга тайёр фидойи касб эгаси

биячи, ўқитувчи ва устозлар меҳнатини муносиб кадрлаш, уларнинг иш ҳақини, жамиятдаги нуфузини ошириш бўйича муҳим қадамлар қўйилмоқда.

Ҳар йили 1 октябрь – Устоз ва мураббийлар куни юртимизда кенг нишонланиб келинади. Бу байрам, аввало, ўзининг билим ва тажрибаси, истеъдод ва маҳорати, инсоний фазилатларини, кўз нури ва қалб қўри, бутун борлигини аямасдан, маърифат йўлида беиминнат хизмат қиладиган устоз ва мураббийларимизга нисбатан халқимизнинг азалий ҳурмат-эҳтиромининг яққол намунасидир. Давлатимиз раҳ-



Имом Бухорий раҳматуллоҳи алайҳ ҳазратлари Маккаи Мукаррамада таълим бераётган чоғда бир зиёратчи Бухорои шарифдаги устозларидан салом ва мактуб келтиради. Бу хабарни эшитган Имом Бухорий Бухоро томонга юзланиб, саломига алик олганларича ҳурмат бажо келтиради, сўнг мактубни икки қўллаб олиб, табаррук қилиб, эҳтиром билан хатни ўқиган экан.

Устоз мисли ёниб турган шамга қиёс. Ўзи ёниб, атрофга нуру зиё сочади. Бошқалар ана шу нурдан баҳраманд бўлади. Шу боис ҳар бир инсон ёши, мавқеи ва даражасидан қатъий назар, сабоқ берган устози олдида мудом таъзимда бўлиши керак. Юртимиздан қанчадан-қанча қомусий олимлар, муҳаддису фақиҳ, муфассир ва мутасаввифлар, донишманд ва мутафаккирлар, фан арбоблари етишиб чиққан. Уларни санаб адоғига етиш мушкул, уларнинг бизга қолдирган илмий меросларининг эса чек-чегараси йўқ. Хўш, улуғ боболаримиз бу даражаларга қандай эришди?

Бунинг сабаблари жуда кўп, аммо уларнинг энг асосийларидан бири устозларига қилган хизмат ва кўрсатган эҳтиромларидир. Чунки уларнинг кўпчилиги бу даражага қандай етганлари ҳақида сўралганда: “Устозимга қилган хизматим ва кўрсатган эҳтиромим туймайли”, дея жавоб берган.

Биз илм олиш истагида эканмиз, буюк бобокалонларимиз изидан юрай-

топилмаса керак. Тан олайлик, ҳеч бир кимса шогирдининг бахт-саодати ва толедан устози каби хурсанд бўлмайди, қалби қувончга тўлмайди. Муаллим – бу шунчаки оддий инсон эмас, у илму ирфон, зиё, тафаккур ва ҳикматлар тимсоли. Фарзандлар таълим-тарбияси, ёш авлодни баркамол инсонлар этиб камолга етказишга алоҳида эътибор қаратиш халқимизга хос эзгу фазилатлардан. Ватанимизнинг эртанги кунининг пойдеворини яратаётган бу инсонларнинг олийжаноб меҳнатига эса ҳар қанча таҳсин айтсак оз. Дарҳақиқат, келажаги буюк давлат учун комил, ҳар томонлама етук ва баркамол, маънан ва ахлоқан пок, ватанпарвар ва инсонпарвар авлодларни тарбиялаб етказиш учун улкан жасорат ва журъат керак. Айниқса, бугун устозларга талаблар янада ошган паллада. Чунки, улар олдида таълим тизимимизни халқаро стандартлар асосида ривожлантириш, ўқув-тарбия жараёнига илғор хорижий тажрибалар, инновацион педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш, ўқувчиларга замонавий касб-ҳунарларни ўргатиш, уларнинг интеллектуал салоҳиятини юксалтиришдек улкан вазифалар ҳам қўйилган.

Юртимизда ўқитувчилар меҳнатини кадрлаш, уларга ҳар жиҳатдан ғамхўрлик кўрсатиш бўйича катта ишлар амалга оширилмоқда. Мамлакатимизда боғча, мактаб, коллеж-лицей ва олий таълим тизимида ишлаётган тар-

барининг қатор фармонларига кўра, таълим-тарбия тизимида алоҳида ўрнатилган ходимларнинг кўпчилиги Ватанимизнинг фахрий унвон, орден ва медаллари билан тақдирланмоқда. Шунингдек, соҳада алоҳида ўрнатилган устоз ва мураббийлардан бир қанчаси соҳага масъул вазирликлар томонидан қатор диплом ва совринлар билан тақдирланиб келинмоқда.

Бугун ўқитувчининг моддий эҳтиёжлари муносиб баҳоланган ҳолда, меҳнатига ҳақ тўланапти. Яна турли йўналишларда ўз иқтидорини намойиш этган устоз-мураббийларга устама ва кўшимча ҳақ тўлаш механизми жорий қилинди. Ўқитувчи ўзига тегишли бўлмаган қишлоқ хўжалик ишларидан холи бўлди. Бунинг бадалига ўз устида ишлаш, малакасини ошириш, ҳар бир машғулотларга пухта тайёргарлик кўриш имконига эга бўлди.

Шоирга дедилар: сиз бахтли инсон, Халқингиз ардоқлар, ҳамма танийди.

Шоир жавоб берди: менда бир армон, Муаллим десалар мени қанийди.

Ўзбекистон Қаҳрамони Абдулла Ориповнинг ушбу шеърда устоз-муаллимлик ҳар қандай инсон ҳавас қиладиган мўътабар касблардан бири эканига алоҳида урғу берилган. Шундай экан, дунёдаги барча касб эгалари устоз-мураббийлар олдида ҳамisha қарздордирлар.

Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.

ШОИРНИНГ ШАРАФЛИ ЁДИ

Шаҳрисабз давлат педагогика институтида шоир, олим, жамоат арбоби, Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган халқ таълими ходими, педагогика фанлари номзоди, Шаҳрисабз адабий мухитининг йирик вакили, Шарофжон Орифийнинг 100 йиллигига бағишланган адабий кеча бўлиб ўтди.

Тадбирда Шаҳрисабз шаҳар ҳокими Шерзод Бўриев, “Олтин мерос” халқаро хайрия жамоат фонди раҳбари, шоир ва журналист Амирқул Каримов, Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Қашқадарё вилояти бўлими раҳбари, таниқли шоир ва журналист Фулом Абдиев, институт ректори, профессор Шерзод Неъматов, “Эл-юрт” ва “Фидокорона хизматлари учун” орденлари соҳиби, Халқаро “Олтин мерос” ва “Шавкатли меҳнати учун” медаллари совриндори Элмурод Боймуродов, Фавқуллода вазиятлар вазирлиги “Вазият” газетаси ва “Муҳофаза” журнали бирлашган таҳририяти бош муҳаррири Азамат Суюнов, хонанда Абдурашид Исоқов, шоирнинг набираси журналист Масрур Санаев, шунингдек, Қашқадарёлик таниқли ижодкорлардан Абдунаби Бобоёр, Қурбонали Азизов, Ғайрат Пўлатов, Шарофжон Орифийнинг фарзандлари, шогирдлари, дўстлари, институт талабалари иштирок этдилар.



Адабий кеча давомида Шарофжон Орифийнинг ҳаёт йўллари, ёзган асарлари, ибратли ишлари ҳамда фаолияти ҳақида ёрқин хотиралар ёдга олинди.

Дастлаб, шоирнинг 100 йиллиги муносабати билан Қашқадарё вилояти ҳокими Муротжон Азимовнинг табригини шаҳар ҳокими Шерзод Бўриев ўқиб эшиттирди.

Дарҳақиқат, Шарофжон Орифий ўз халқининг овози, орзу-умидлари ва инсон қалби изтиробларининг ифодачиси эди.

Шарофжон Орифий 71 йил умр кўрган бўлсада сермахсул ижод қилди. Шоир умрининг айна гуллаган пайти уруш йилларига тўғри келди. Аммо бу уруш унинг ижодига заррача тўсқинлик қила олмади. У бир кўлида қурол, бир кўлида қалам билан фашизмга қарши курашди.

Унинг асарлари, лирик шеърларида инсон учун Ватандан азиз ва муқаддас, олий неъмат йўқлиги уқтирилади. Инсонни комилликка ундовчи фазилатлар, эзгу ғоялар тараннум этилган. Бугунги глобаллашув жараёнида шоир ижодини ёшлар орасида кенгроқ тарғиб этиш уларнинг маънавиятини юксалтиришга, дунёқарашини кенгайтиришга хизмат қилади.

Шоирнинг набираси Масрур Санаев бобоси билан боғлиқ ёрқин хотиралари билан ўртоқлашди. – Бобомда ўзбекларга хос донишмандлик, бағрикенглик, хокисорлик бор эди, – дейди М.Санаев. – Нафақат у билан суҳбатлашган, унинг ҳаёти ва ижодига бефарқ бўлмаган ҳар қандай инсон бу каби фазилатларни бир зумда илғаб олиши ҳеч гап эмас.

– Устозга бўлган меҳрим ва ҳурматим туфайли журналист, шоир бўлишни орзу қилдим ва бугун кўриб турганингиздек ўз орзуларимга эришиб турибман, – деди ўзининг сўз бошида Амирқул Каримов. – Ўша пайтларда Шарофжон Орифий “Шаҳрисабз тонги”, “Кеш” газеталарида фаолият олиб борарди. Таҳририят қошида ижодкор ёшларни қамраб олган “Навқирон” тўғараги ташкил этилган бўлиб, унга Орифий домла раҳбарлик қиларди. У киши адабиётга меҳри баланд ёшларни авайларди, билганларини ўргатарди.

Россия Федерациядаги дорилфунунларнинг бирида таҳсил олиб юрган пайтларимда ҳам газета таҳририяти ва “Навқирон” адабий тўғараги билан доимий алоқада бўлиб турдим. Мақола ва шеърларимни юбориб турдим. 1983 йили газетада суратим ва шеърларим Шарофжон Орифийнинг “Оқ йўли” билан босилганини эшитганимда ўзимни еттинчи осмонда ҳис қилганман.

Тадбирда таниқли журналист Азамат Суюнов ҳам сўз олиб, шоир билан боғлиқ ёрқин хотираларни эслади ва муҳим маълумотларни айтди.

– Шарофжон Орифий оддий аскар сифатида жангга кириб, лейтенант ҳарбий унвонига бўлган шонли, жанговар йўлни босиб ўтганини архив ҳужжатлари тасдиқлайди, – дейди у. – Шарофжон отанинг набираси Санжарбек Нурмухамедов бобосининг фронтдаги тақдири билан қизиқишга жазм этиб, Россия Федерацияси

Мудофаа вазирлигига қарашли бош архивига борган. Бобосига тегишли ҳужжатларни синчиклаб излаган, ўрганган. Ниҳоят, мақсадига эришган. Садоқатли набира Санжарбек бобосининг исми-шарафини сарғайган varaқларда акс этганини кўриб, кўзлари қувониб кетган. Бу тарихий ҳужжат фронтда жанг қилган ўзбек ўғлонининг жасоратидан далолат берар эди. Кўп сонли жангчилар орасидан бундай ҳарбий унвонга лойиқ топилмиш ҳазилакам гап эмасди. Лейтенант зобитлик рутбаси ҳар кимга ҳам берилвермас, жангу жадалларда чинакам маҳорат кўрсатган, фронтдошларига ҳар жиҳатдан намуна бўла оладиган мард ўғлонларгагина насиб этди. Она-Ватан тақдири, химоясини ҳаётининг мазмуни, деб билган бундай юртдошларимиз билан ҳар қанча фахрлансак арзийди.

Тадбирда сўз олган Фулом Абдиев, Элмурод Боймуров, Шерзод Неъматов ҳам шоир билан боғлиқ ёрқин хотираларини эсга олишди.

Адабий кеча давомида Шарофжон Орифийнинг 100 йиллигига бағишлаб нашр этилган “Шаҳрисабзнинг ориф фарзанди” номли китобининг тақдими бўлиб ўтди. Орифийнинг фарзандлари, шогирдлари тадбир иштирокчилари китобнинг чоп этилишида беминнат хизмат қилган Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси, сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори Лазиз Раҳматов ҳамда Шарофжон Орифийнинг шогирдлари Амирқул Каримов, Фазлиддин Воҳидов, Қурбонали Азизовларга миннатдорчилик билдирдилар.



Анжуман сўнгида иштирокчиларга, меҳмонларга янги чоп этилган китобдан, шунингдек, шоир қаламига мансуб асарлардан тақдим этилди. Айниқса, шоир шеърларига басталаб ижро этилган кўшиқлар йиғилганларга янада кўтаринки кайфият улашди.

Анвар ҚОБИЛОВ.



Vaziyat

газетаси

Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқуллода
вазиятлар
вазирлиги

Бош муҳаррир
Азамат СУЮНОВ

*Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.*

Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба кунини чиқади.
Топшириш вақти – 15.00
Топширилди – 15.00

Навбатчи:
А.ҚОБИЛОВ

Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди
ва изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри
таҳририят нуқтаи назаридан
фарқланиши мумкин.

Газетадан олинган материаллар
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва
ахборот агентлигида 2007 йил
3 январда 0096-сон рақам
билан рўйхатга олинган
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Юнусобод тумани,
Ш.Рашидов кўчаси, 17-А-уй.
Тел.: (71) 212-69-56
Телеграм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва
ташкilotлар учун - 382

Газета “BUSINESS PRINT DESIGN”
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №165
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.
Адади - 9900 нусха